

---

## SEKTOR RAHBARLARI DEHQON BOZORIDA

Mustaqillik bayrami arafasida aholi uchun eng zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini nazorat qilish, narxlarning asossiz oshirilishiga yo'l qo'ymaslik va aholi fikrlari bilan yaqindan tanishish maqsadida bugun, Rishton tumani hokimi Bahodirjon Xoliqov va sektor rahbarlari dehqon bozorida bo'lishdi.

Ish vaqtini to'g'ri taqsimlay oladigan kishi ro'zg'orini butlash uchun hech bo'lmaganda oyda bir marta bozorga borishi tabiiy. Kundalik ehtiyojlarimizni mahalliy do'konlar qondirishi mumkinu, ammo shunday narsalar borki, ularni tanlab, saralab, sifatini, narxini hisoblab, bozordan xarid qilgan ma'qul.

Bozorni barakali, narxi ham hamyonbop. Shuning uchun ham bizda "Otang bozor-onang bozor" deb bejizga aytishmagan. Rishton tumanidagi Dehqon bozorini oladigan bo'lsak, mustaqillik bayrami arafasida bu yerdagi narxlar barqarorligini saqlash, aholi uchun arzonlashtirilgan yarmarkalarni tashkil qilish borasida tuman hokimi va mutasaddilar tomonidan tezkor chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bozordagi narx-navo qanday, u yerdagi sanitariya holati talabga javob bera oladimi, oziq-ovqat mahsulotlari va ularning zaxirasi yetarlimi

Tuman hokimi va sektor rahbarlari bozordagi holatni o'rganish jarayonida aynan mana shularga e'tibor qaratishdi. Tuman rahbarlari bozordagi tadbirkorlar bilan suhbatlashib, narxlarni sun'iy ravishda oshirmaslikka, bozorda aholi uchun eng kerakli, ko'p iste'mol qilinadigan mahsulotlarga mo'tadil, hamyonbop narxlar belgilashga kelishildi. Mutassadilarga arzonlashtirilgan va maktab yarmarkalarni ko'paytirish borasida vazifalar berildi.

Topshiriqlar yuzasidan tegishli tashkilotlar va bozor ma'muriyati nazorat olib borishi va kunlik hisobot shaxsan hokim tomonidan nazorat qilinishi aytib o'tildi.

2024-08-16 15:15:41